

SO'NGI RIM IMPERIYASI HOKIMIYAT ALMASHINUVI

*Rayimqulova Adiba Asror qizi
Turdiyev Javoxir Xolto'ra o'g'li
Xolmatov Azamat Shuhrativech*

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi

Annontatsiya : Ushbu maqolada so'nggi Rim imperiyasi davri jarayonlari , undagi sulolalar almashinuvi va so'nggi yillardagi inqiroz sabablari bayon etilgan. Kommod o'ldirilganidan so'ng turli guruhlar o'rtasidagi kurash fuqarolar urushiga olib keldi (193—197-yillar) Turli provinsiyalardagi nishonlar o'z nomzodlarini imperator deb e'lon qildilar: Suriyada imperator deb legat Pestsenniy niger e'lon qilindi, uni sharqdagi provinsiyalar tan oldi; Britaniyada, gall zodagonlari ham qo'llab-quvvatlagan Kladiy Olbin, Pannoniyada dunay provinsiyalari bilan legat Lutsiy Septimiy Sever hokimiyatini da'vo qildilar. Da'vogarlar o'rtasidagi kurashda Shimoliy Afrikada tug'ilgan Septimiy g'olib chiqdi va imperatorlik hokimiyatini egalladi (193—211-yillar).

Kalit so'zlar: Gall, niger, legat, Legioner, Ktesifon, Karakalla, Emiliy, Rim.

Septimiy Severlar sulolasiga asos soldi (193—235-yillar). Uning davrida imperiya qo'shinga tayanib boshqarildi. Septiley Sever qo'shinda bir necha islohotlar o'tkazdi. Rim qo'shinlari Dunay va Suriya legionlaridan tashkil topa boshladi. Qo'shinni varvarlashuvi jarayoni chuqurlashdi. Legionerlar, turli lavozimdagi harbiylar qator imtiyozlaiga ega bo'ldilar. Oddiy legioner xizmat davomida yuqori harbiy lavozimlargacha ko'tarilishigacha suvoriylar toifasi tarkibiga kirish, qonuniy oila ko'rish huquqlariga ega bo'ldi. Legioner hukumatdan oziq-ovqat ulushi, ijarachi sifatida yer olar edi. Imtiyozlar, sovg'alar va turli yengilliklar qo'shinda intizomni susayishi va aynishiga olib keldi. Imperator o'z ma'muriyatini suvoriylar, asosan Afrika va Sharq provinsiya shaharlarining katta amaldorlari bilan to'ldirdi. [1]

Boshqaruv apparatida harbiylarning soni ko'payib ketdi. Eski muassasalaiga yangilari qo'shildi, ularni shtatlari yildan-yilga oshib bordi. Eski magistrat lavozimlarga (kvestura, pretura va konsulat) byurokratik amalparatslik bosqichlari bo'ldi. Septimiy Sever kichik va o'rta tabaqalar manfaatini ko'zlab, ish olib bordi. Agrar muammo va qo'shin saflarini to'ldiradigan ijtimoiy qatlamlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida davlat jamg'armasi ixtiyorida yerni hadya qilish va sotishni yo'lga qo'ydi. Tashqi siyosatda u Parfiya bilan 195—199-yillar g'olibona urush olib bordi. Mesopotamiya bosib olinib, Ktesifon talandi. Britaniyada 208—211-yillarda kaledon qabilalari bilan g'olibona urush olib borildi. Severlarni navbatdagi vakili Karakalla (211—217-yillar) qo'shin va boshqaruv xarajatlarini qoplash maqsadida soliq

to'lovchilar sonini oshirishni ko'zlab 212-yilda provinsiyalarni barcha erkin aholisini rim fuqarosi deb e'lon qildi, lekin ular immunitetdan mahrum qilinib soliq to'lovchilarga aylandilar. Senatning mavqeyini pasaytirish va qo'shinlarga tayanishni imperatorning o'g'li Mark Avreliy Antoniy Karakalla davom ettirdi. [2]

Karakalla 212-yilda imperiyaning barcha erkin aholisiga rim fuqarolik huquqini bergan mashhur ediktini e'lon qildi. Imperator 215-yilda Aleksandriyada undan norozi bo'lgan aholisidan qattiq o'ch oldi. Keyingi yil Karakalla Parfiyaga tinchlik va do'stlikni taklif qildi. Ammo u Parfiyaga bostirib kirib ko'pgina Parfiya zodagonlarini qirib tashladi. Arbela shahrini talon-taroj qildi. Karakalla 35 yoshida fitna qurboni bo'ldi. Tez orada Karakallaning o'gay onasini singlisi Mezani nevarasi Variy Avit Bassian legionlar tomonidan imperator deb e'lon qilindi. Finikiya quyosh xudosi Geliogabalni kohini boigan 14 yoshli Geliogabal (Varit Avit Bassian shu nom bilan tarixga kirdi) Rimga kelib, eng awalo, o'zini sevimli xudosi sharafiga ibodatxona qurib har kun unga qurbonliklar keltirdi. Axloqi buzuk, kaltafahm o'smir davlat ishlari bilan shug'ullanishni istamay ko'ngil ochishga berilib ketdi. [3]

Ziyofat zallari pollarini atirgul yaproqlari bilan to'shab, maishat qilayotgan do'stlariga misli ko'rilmagan qimmatbaho sovg'alar qildi, quyon terisi yoki qirg'ovul patlari bilan qoplangan, so'rida yastanib yotdi; u tuyalar tovoni, xocroz tojini, tovus va bulbullar tilini yedi, baliq va tryufelni ustiga tuz o'miga marvarid sepdi; uning bir tushlik ovqati 100 ming sestersiydan kam turmas edi. Imperator jamoa g'ashini keltirib oltin iplar bilan tikilgan, qimmatba to toshlar bilan bezalgan ipak tunika kiyar edi. U aktyor, aravakash va turli firibgarlarni oliy davlat mansablariga tayinlab, qullar va ozod qo'yilganlarni provinsiya noiblarini qildi. Barchaning nafratiga sazovoi boigan Geliogabal 222-yil mart oyida onasi bilan harbiylar tomonidan odirildi. Aqlsiz hukmdorning o'zi Rim ko'chalarida ilmoq bilan sudralib, keyin axlatga cho'miltirilib, Emiliy ko'prigidan Tibrga tashlandi. Severlar sulolasining so'nggi imperatori Aleksandr 235-yil odirilganidan so'ng qo'shin davlat nazoratidan chiqdi. Legionerlar birin-ketin tarixshunoslikda «askar imperatorlari deb atalgan hukmdorlarni taxtga chiqardilar. Ular taxtda uzoq o'tira olmadilar. Imperator Filipp Arab (244—249-yillar) davrida 248-yil aprelida abadiy shahar deb atalgan Rimning 1000 yilligi hashamatli bayram qilindi. [4]

Publiy Litsiniy Valeriy (253—260- yillar) va uning o'g'li 35 yoshli Gallien (253—268-yillar) davrida tushkunlik eng yuqori cho'qqisiga chiqib, imperiya amalda bir necha qismlarga parchalandi. Galliya, Ispaniya va Britaniyada hokimiyatni Kassian Postum (258—268-yillar) bosib olib Gall imperiyasini, Sharqda Septimey Odinat (261—267-yillar) qudratli Palmira podshohligini tuzdilar. Dunay provinsiyalari Bolqon va Misrda ham markazga bo'ysunmagan hukmdorlar paydo bo'ldi. Faqat Illiriyalik 49 yoshli Mark Avreliy Klavdiy (268—270- yillar) imperator bo'lganidan so'ng imperiyani qayta tiklash boshlandi. U alleman va gotlarning hujumlarini qaytardi,

Dunay provinsiyalarini qayta tuzdi. Tez orada Klavdiy vabo kasalligidan vafot etdi, uning o'miga yana bir illiriyalik 55 yoshli harbiy boshliq lutsiy Domitsiy Avrelian (270—275-yillar) taxtga o'tirdi. Avrelian uzoqni ko'ra oladigan, g'ayratli siyosatchi bo'lib, 271- yilda u Shimoliy Italiyaga bostirib kirgan german qabilalari hujumini qaytardi va Rim atrofmi 18—18 km. uzunlikdagi mustahkam mudofaa istehkomlarini qurishga buyruq berdi. Shu yilda imperator Dakiya provinsiyasiga safar qilib, imperiyaning Dunay chegaralarini barqaror qilishga harakat qildi. [5]

Palmirada Odinatning bevasi Zenobiya hukmronlik qilar edi. Zenobiya qo'shinlari Suriya, Falastin, Kichik Osiyo va Misrni nazorat qilar edi. Avrelian 272—273-yillarda Zenobiya qo'shinlarini tor-mor qilib, Sharqiy provinsiyalarda Rim hokimiyatini tikladi. U Gall imperiyasini ham nisbatan qiynalmay bo'ysundirdi. Shundan so'ng Rim imperiyasining yaxlitligi tiklandi. Hukmdor davlatning iqtisodiy ahvolini yaxshilash uchun pul islohotini o'tkazdi va o'zini ilohiy homiysi sifatida «yengilmas quyosh» xudosini joriy qilib, unga e'tiqod qilishga buyruq berdi (274-yil). Avrelianning hokimiyati mutlaq edi. U «janob va xudo» deb ulug'lanib, «davlatni qayta tiklovchi» unvoniga ega edi. Qattiqqo'l imperator forslarga qarshi yurish vaqtida uyushtirilgan fitna natijasida 275-yilda o'ldirildi. Imperiyada yana siyosiy beqarorlik, tartibsizliklar boshlandi. Davlat tizimini yemirilishi, ichki o'zaro nizolar, german qabilalari hujumi va III asrda sharqda tashkil topgan qudratli Sosoniylar davlati bilan uzoq muvoffaqiyatsiz olib borilgan urushlar Rim imperiyasining tushkunligiga olib keldi. Ishlab chiqarish hajmlari keskin kamayib ketdi. Provinsiyalar o'rtasidagi savdo aloqalari buzildi. Imperiyaning turli hududlari o'rtasidagi iqtisodiy aloqalar zaiflashdi.[6]

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Геродот. История в девяти книгах / Пер. Г. А. Стратановского. М.; Л., 1972. («Памятники исторической мысли»; репр. 1993)
2. Кадимги дунё тарихи. II кием. Ю.С. Крушкол тахрири остида “Укитувчи” нашриёти. Тошкент - 1975.
3. Ражабов Р. Кадим ги дунё тарихи. “Фан ва техника нашриёти”. Тошкент, 2009
4. Ollomurodov, N. Y. O. G. L. (2023). SOVET HUKUMATINING DINGA NISBATAN MUNOSABATI VA UNING IJTIMOY OQIBATLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(4-2), 392-397.
5. Chorshanbiyev, B. R., & Ollomurodov, N. (2023). AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRI XO 'JALIGI. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(1 SPECIAL), 417-419.
6. Boytora, C., & Nurali, O. (2023). Amir Temur and the Times of the Temuris Mints and Monetary Policy. *Zien Journal of Social Sciences and Humanities*, 16, 1-4.